

“Expertise of normative and technical documents”

“Me’yoriy va texnik hujjatlarning ekspertizasi”

7 –Ma`ruza. Me’yoriy hujjatlarning me’yoriy nazorati

Reja:

1. Me’yoriy nazoratni o’tkazish uchun asos bo’luvchi hujjatlar
2. Me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqishning asosiy qoidalari

Standartlarning me’yoriy nazoratida quyidagi standart va tasniflagichlarga murojaat etiladi:

ГОСТ 1.5-2001 Межгосударственная система стандартизации. Стандарты межгосударственные, правила и рекомендации по межгосударственной стандартизации. Общие требования к построению, изложению, оформлению, содержанию и обозначению

ГОСТ 7.4-95 Система стандартов по информации, библиотечному и издательскому делу. Издания. Выходные сведения

ГОСТ 7.75-97 Система стандартов по информации, библиотечному и издательскому делу. Коды наименований языков

ГОСТ 8.310-90 Государственная система измерений. Государственная служба стандартных справочных данных. Основные положения

ГОСТ 12.1.007-76 Система стандартов безопасного труда. Вредные вещества. Классификация и общие требований безопасности

ГОСТ 12.1.044-89 Система стандартов безопасности труда. Пожаровзрывоопасность веществ и материалов. Номенклатура показателей и методы их определения

ГОСТ 12.4.026-76 Система стандартов безопасности труда. Цвета сигнальные и знаки безопасности

ГОСТ 14192-96 Маркировка грузов

ГОСТ 15150-69 Машины, приборы и другие технические изделия. Исполнения для различных климатических районов. Категории, условия эксплуатации, хранения и транспортирования в части воздействия климатических факторов внешней среды

ГОСТ 17527-2003 Упаковка. Термины и определения

ГОСТ 19433-88 Грузы опасные. Классификация и маркировка

ГОСТ 21140-88 Тара. Система размеров

O'z DSt 1.0:200 Ўзбекистон стандартлаштириш тизими. Асосий қоидалар

O'z DSt 1.3:200 Ўзбекистон стандартлаштириш тизими. Ташкилот стандартларни ишлаб чиқиш, тасдиқлаш ва рўйхатга олиш тартиби

O'z DSt 1.5:1993 Ўзбекистон стандартлаштириш давлат тизими. Меъёрий ҳужжатларни текшириш, қайта кўриб чиқиш, ўзгартириш ва бекор қилиш тартиби

O'z DSt 1.7:1998 Ўзбекистон стандартлаштириш давлат тизими. Давлатлараро, миллий стандартларни ва бошқа мамлакатларнинг меъёрий ҳужжатларини қўллаш тартиби

O'z DSt 1.8:200_ Ўзбекистон стандартлаштириш тизими. Тавсияномаларни ишлаб чиқиш, келишиш ва тасдиқлаш тартиби

O'z DSt 1.15:1999 Ўзбекистон стандартлаштириш давлат тизими. Маҳсулотга ишлаб чиқилган меъёрий ҳужжат даражаси ва турини аниқлаш

Ўз РСТ 2.321-96 Конструкторлик ҳужжатнинг ягона тизими. Ҳарфли белгиланишлар

O'z DSt 8.012:2005 Ўзбекистон Республикаси ўлчашлар бирлигини таъминлаш давлат тизими. Физикавий катталиқлар бирлиги

O'z DSt ISO/IEC 21:2001 Ўзбекистон стандартлаштириш давлат тизими. Халқаро ва минтақавий стандартларни Ўзбекистон давлат стандартлари сифатида қабул қилиниши (ISO/IEC 21:1999 IDT)

O'z DSt 002:2006 Стандартларнинг умумдавлат таснифлагичи Standartni tuzilishiga qo'yiladigan talablar

Standart elementlari

Standart ayrim elementlardan iborat.

Umumiy hollarda standartga quyidagi elementlar kiritiladi:

-muqova;

-titul varaq;

-muqaddima;

-mundarija;

-kirish;

-nomi;

-qo‘llanish doirasi;

-me‘yoriy havolalar;

-atamalar va ta‘riflar;

-belgilash va qisqartmalar;

-asosiy me‘yoriy qoidalar;

-ilovalar;

-bibliografiya;

-bibliografik ma‘lumotlar;

-standartning oxirigi beti (bajaruvchilar imzo qo‘yadigan varaq. va kelishish varag‘i).

Zaruriyat bo‘lganida standartga «Mundarija», «Kirish», «Me‘yoriy havolalar», «Atamalar va ta‘riflar», «Belgilash va qisqartirishlar», «Ilovalar», «Bibliografiya» elementlarning mazmuni va bayoni ularning o‘ziga xosligiga asoslanib kiritiladi.

Muqova

Standartning muqovasida davlat va rus tillarda uning belgilanishi, toifa va nomi keltiriladi.

Standart muqovasi A ilovaga asosan rasmiylashtiriladi.

Titul varaq

Standartning titul varag'ida uning belgilanishi nomi va GOST 7.4 bo'yicha nashriyot to'g'risida chiqish ma'lumotlar keltiriladi.

Standartning titul varag'i ushbu standartning V ilovasiga asosan rasmiylashtiriladi. Zaruriyat bo'lganda bir nechta standartlar tematik to'plamga broshyuralanishi mumkin. Bunda unga to'plamning maxsus titul varag'i, «to'plamning mundarijasi» element qo'shimcha holda kiritiladi.

To'plamning titul varag'ida davlat va rus tillarda to'plamning nomi, to'plamga kiritilgan standartlar belgilanishi, «Rasmiy nashr» so'zi (O'zstandart, Davarxitektqurilish, Davtabiatqo'm, Sog'liqni saqlash vazirligi tomonlaridan nashr etilayotgan hujjatlar to'plami uchun), GOST 7.4 bo'yicha chiqish ma'lumotlar keltiriladi.

To'plamning titul varag'ini misoli S ilovada keltirilgan.

Oxirgi betda joylashtirilgan «to'plamning mundarijasi» elementda, to'plamga kiritilgan barcha standartlarni belgilanishi va nomi, shuningdek, biridan biriga o'tuvchi nomerlashning ushbu standartlar boshlanadigan betlari keltiriladi.

So'zboshi

Standartning so'zboshida ushbu standart to'g'risida umumiy ma'lumotlar keltiriladi.

Standart so'zboshida keltirilgan u to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar «So'zboshi» sarlavhadan keyin joylashtiriladi, arab raqamlar bilan nomerlanadi (1, 2, 3. va h.k.) va quyida keltirilgan ta'riflardan foydalanilgan holda quyidagi ketma-ketlikda joylashtiriladi.

O'zbekiston milliy standarti to'g'risida ma'lumotlar.

a) standartni ishlab chiqish va uni tasdiqlashga kiritish to'g'risida ma'lumotlar.

1. _____

.tashkilotning to'liq nomi (ishlab chiquvchi va birga bajaruvchi)

tomonidan ISHLAB CHIQILGAN.

2.- _____ ---

tashkilot uning yordamchi qo'mitasining nomi TQ bo'lmanida esa,

standartni tasdiqlashga topshirgan idoraning nomi

tomonidan KIRITILGAN.

Standartni ishlab chiqqan tashkilot, uni tasdiqlashga topshirgan taqdirda, quyidagi ta'rif ishlatiladi:

«1. _____

Standartni ishlab chiqqan va tasdiqlashga topshirgan tashkilotning nomi
tomonidan ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN

b) tasdiqlash to'g'risida ma'lumot:

_____ tomonidan TASDIQLANGAN

Standartni tasdiqlagan idoraning nomi,

_____ raqami va sanasi ko'rsatilib, tasdiqlanganligi to'g'risida hujjat .

s) standart xalqaro yoki mintaqaviy darajada qo'llanilishi (uyg'unlashtirilishi) to'g'risida ma'lumot.

d) O'RNIGA ushbu standart ishlab chiqilgan standart (standartlar) to'g'risida ma'lumot.:

«4. _____ --

_____ O'RNIGA

standart (standartlarni) belgilanishi

yoki

«4.-- _____ - _____ qismi O'RNIGA

standartni belgilanishi

yoki standart ilk bor joriy etilishi to'g'risida ma'lumot:

«4 DASTLABKI JORIY ETILISHI»

O‘zbekiston hududida O‘z DSt 1.7. da ko‘zda tutilgan hollarda davlatlararo standartlar o‘rniga milliy standart joriy etilganida, bu ma’lumotlardan so‘ng o‘rniga ushbu standart qo‘llanilishi lozim bo‘lgan aniq davlatlararo standart to‘g‘risida ma’lumot keltiriladi.

«Ushbu standart amalda joriy etilishi bilan GOST

davlatlararo standartning belgilanishi va nomi

O‘zbekiston hududida amal qilishi to‘xtatiladi”

ye) standartni qayta nashr etish to‘g‘risida ma’lumot

«5.QAYTA NASHR ETISH-_____”

yil

yoki standartning yangi nashri to‘g‘isida ma’lumot

«5-_____sonli o‘zgartirish _____sonli o‘zgartirishlar bilan NASHR
ETISH

“

o‘zgartirish raqami (o‘zgartirishlar raqami)

g) Agar standartni ishlab chiqishda foydalanilgan hujjatlar patent huquqi ob‘ektiga mansub bo‘lsa, shu hujjatlar to‘g‘risida ma’lumot. Patentlar raqami va sanasi, ixtiroga patent berishga talabnoma, foydali modellar, sanoat namunalari ko‘rsatiladi.

h) Ma’lumotni chop etish tartibi standartni amalda joriy etish, standartga o‘zgartirishlar kiritish va ularni amalda joriy etish, standart amal qilishini tugatish, uni qayta ko‘rib chiqish yoki bekor qilish to‘g‘risida ma’lumot.

Ushbu standart va o‘zgartirishlari O‘zbekiston hududida amalda joriy etilganligi (amal qilishi tugatilganligi) to‘g‘risidagi ma’lumot O‘zstandart Agentligi tomonidan chiqariladigan ko‘rsatkichda chop etiladi. Ushbu standart qayta ko‘rib

chiqilgan yoki bekor qilingan taqdirda, tegishli ma'lumot «O'zstandart» Agentligi tomonidan chiqariladigan ma'lumot ko'rsatkichda chop etiladi.

Izoh - Standartni nashr etishda-i) sanab o'tishlarga asosan keltiriladigan ma'lumotlar kursiv bilan ajratib ko'rsatiladi.

Korxonada standartni to'g'risida ma'lumot.

a) standartni ishlab chiqish va tasdiqlash to'g'risida ma'lumot.

«1 _____ --

Standartni ishlab chiqqan bo'linmaning nomi

tomonidan ISHLAB CHIQLIGAN.

2.- _____

Standartni tasdiqlagan tashkilotning nomi hujjatning nomi, sanasi va raqami
-----tomonidan TASDIQLANGAN.

b) o'rniga ushbu standart ishlab chiqilgan me'yoriy hujjat (me'yoriy hujjatlar) to'g'risida ma'lumot.:

-

«4. _____ O'
RNIGA»

me'yoriy hujjatni belgilanishi

yoki

«4 sohadagi _____

me'yoriy hujjatni belgilanishi

yoki standart dastlabki joriy etilishi to'g'risida ma'lumot.

«4 DASTLABKI JORIY ETILISHI»

s) standartni qayta nashr etilishi yoki o'zgartirishlar bilan yangi nashri to'g'risida ma'lumot.(3.4.2.1.e) o'xshash)

Milliy darajadagi tavsiyanomalar to'g'risida ma'lumot - 3.4.2.1.o'xshash.

Zaruriyat bo'lganida so'zboshiga qo'shimcha ma'lumotlar kiritilishi mumkin.

«So‘zboshi” titul varag‘idan keyingi betga (uning orqasiga) joylashtiriladi va betning yuqori qismiga joylashtirilgan tegishli sarlavha bilan boshlab o‘rtasiga bosh harf bilan yoziladi hamda nashr etishda yarim qora shrift bilan ajratib qo‘yiladi.

Mundarija

Agar standartning hajmi 10 betdan ko‘p bo‘lsa, unga «Mundarija” elementni qo‘shishga tavsiyanoma etiladi.

«Mundarija” element yangi betdan boshlanib, standartning so‘zboshidan keyin joylashtiriladi. Bunda «Mundarija” so‘zi betning yuqori qismini o‘rtasiga bosh harflar bilan yoziladi va yarim qora shrift bilan ajratib qo‘yiladi.

Kirish

Standart ishlab chiqilish sabablarini asoslab berish zarur bo‘lsa, «Kirish” elementi kiritiladi.

Kirish tarkibida talablar bo‘lmasligi kerak.

«Kirish” element «Mundarija” element tugaydigan betdan so‘ng keyingi betga (betlarga), u bo‘lmaganida esa- «So‘zboshi” joylashtirilgan betdan keyingi betga joylashtiriladi. Bunda «Kirish” so‘zi, kirish boshlanadigan betning yuqori qismiga shu betning o‘rtasiga bosh harflar bilan yoziladi va yarim qora shrift bilan ajratib qo‘yiladi.

Nomi

Standart nomi qisqa bo‘lishi, standartlashtirish ob‘ektini va standart o‘rnatadigan qoidalarning umumlashtirilgan mazmunini aniq tavsiflashi, shuningdek umumiy qoida bo‘yicha standart ko‘rsatkichiga (katalogga) ushbu standart to‘g‘risida ma’lumotni kiritish qulay bo‘lishi uchun O‘z DT 002 ga asosan standartni bir xil tasniflashni ta’minlashi kerak.

Standart nomi odatda sarlavha va kichik sarlavhadan iborat bo‘lishi kerak.

Misollar

1 ASBOBSOZLIK MIKROSKOPLAR

Umumiy texnikaviy talablar

2 PISHLOQ

Nitrit va nitratlarni aniqlash usuli

Agar standart asos bo'luvchi, tashkiliy – metodik yoki umumtexnikaviy standartlar tizimini ifodalaydigan standartlar majmuiga kirgan taqdirda, standart sarlavhasi oldida majmuining barcha standartlari uchun umumiy va shu tizimning nomi bo'lgan guruhga oid sarlavha ko'rsatiladi.

Misol - konstruktorlik hujjatning yagona tizimi.

ELEKTR SXEMALAR

Atamalar va ta'riflar

Asoslangan holatlarda umumtexnikaviy yoki tashkiliy-metodik standartlar tizimiga (majmui) kiradigan standart nomi, guruhga oid sarlavha va kichik sarlavhadan iborat bo'lishi mumkin.

Misol - mehnat xavfsizligi standartlarning tizimi

Asosiy qoidalar

Standart sarlavhasi bosh harflar bilan yoziladi. Standartning guruhga oid sarlavhasi va kichik sarlavhasi bosh harf bilan boshlanib, kichik harflar bilan yoziladi.

Standart sarlavhasini standartlashtirish ob'ekti belgilab beradi. Sarlavhada standartlashtirishning ushbu ob'ektini boshqa ob'ektlardan farqlaydigan kerakli va yetarli belgilar keltiriladi.

Agar standart o'xshash mahsulotlar (xizmatlar) guruhiga taalluqli bo'lsa, u holda uning sarlavhasi O'zbekistonda amal qiluvchi mahsulotlar (xizmatlar) tasniflagichi bo'yicha tegishli guruhni nomi hisobga olinib tuziladi.

Izoh - Mudofaa mahsulotiga ishlab chiqilgan standartlarning sarlavhasi ushbu mahsulotga tegishli bo'lgan tasniflagichlar hisobga olinib tuziladi.

Standartlashtirish ob'ektni yanada to'liq ta'riflash uchun standart sarlavhasiga qo'shimcha ta'riflar kiritiladi. Bu ta'riflar quyidagi belgilar bilan. mahsulotni ta'riflashi mumkin:

-mahsulot (xizmatlar)ning muayyan guruhiga mansubligi bo'yicha.

Misollar

1 UNIVERSAL YUKORTGICHLAR

-ushbu mahsulotni bitta (yoki ko'p) muayyan usul bilan tayyorlash usuli bo'yicha;

2 ISSIQLAYIN KATANKA QILINGAN LENTALAR.

-mahsulot tayyorlangan material bo'yicha;

3 MIS CHIVIQLAR

- shakli, o'lchamlari, massasi, quvvati va h.k. bo'yicha;

4 KONUSLIGI 1:10 BO'LGAN KONUSSIMON VALLAR UCHI

Standart sarlavhasini davlat tilda bayon etishda, avval ayrim hollardan umumiy hollar prinsipiga muvofiq ularni axamiyatga ega bo'lgan ta'riflarini (sifat) yozish lozim oxirida esa, ot (standartlashtirish ob'ektning nomi) bo'lishi kerak.

Misollar

1 QUYMA KO'PRIKLI ELEKTR KRANLARI

2 GIDRAVLIK SISTEMALAR BAKI

3 BOSH KIYIMLAR

4 VAKUUM TEXNIKASI

Atamalar va ta'riflar

5 FIZIK OPTIKASI

Rus tildagi standartning sarlavhasida birinchi so'z ot bo'lishi, keyingi so'zlari esa, standartlashtirish ob'ektini muhimligi yo'sinida qo'shimcha belgilarini tavsiflovchi sifat (ta'riflar) bo'lishi kerak, ya'ni standart sarlavhasi so'zlari teskari tartibda yozilishi kerak.

Misol – QUYMA KO'PRIKKA OID ELEKTR KRANLAR

Davlat tildagi standart sarlavhasida har qanday holatda so'zlarni to'g'ri tartibi saqlanadi, ya'ni avval muhimligi yo'sinida ta'riflar (sifat)ni yozish kerak.

Standart sarlavhasida qisqartirishlarni, rim raqamlarni, matematik belgilarni, grek harflarni ishlatish tavsiyanoma etilmaydi. Umumtanolingan abbreviaturalar, kodlar, kattalik birliklari, mahsulotning shartli belgilanishiga kiradigan harfli, raqamli va harf-raqamli qisqartirishlarni ishlatishga yo'l qo'yiladi.

Rahbariy hujjat, tavsiyanomalar, norma va qoidalar.nomida kichik sarlavha ishlatilmaydi. Bu nom soʻzlarni toʻgʻri tartibi bilan bosh harf bilan boshlanib kichik harflar bilan yoziladi.

Milliy standartning nomi ingliz tiliga tarjima qilinadi va 5.2.1. ga asosan rasmiylashtiriladigan standartning birinchi betiga yoziladi. Bu nom bosh harf bilan boshlanib, kichik harflar bilan yoziladi.

Standartning titul varagʻi va birinchi betida koʻrsatiladigan standartning ingliz tildagi nomidan tashqari standartning. nomi yarim qora shrift bilan ajratib qoʻyiladi.

Qoʻllanish doirasi

«Qoʻllanish doirasi» elementda standartning belgilangan maqsadi va uni joriy etilish sohasi (standartlashtirish obʻekti) koʻrsatiladi, zaruriyat boʻlganda esa, standartning qoʻllanish doirasi aniqlashtiriladi.

Standartning belgilangan maqsadi va qoʻllanish doirasi koʻrsatilganda esa, quyidagi formulirovkalar ishlatiladi: «Ushbu standart oʻrnatadi...» yoki «Ushbu standart.....oʻrnatadi va.....ga taalluqli».

Standartning qoʻllanish doirasi aniqlashtirilganda quyidagi formulirovkalar ishlatiladi: «Ushbu standart.....qoʻllash uchun moʻljallangan», yoki «Ushbu standart shuningdek... qoʻllanilishi mumkin».

Umumiy texnikaviy shartlarni yoki texnikaviy shartlarni oʻrnatadigan standartda, standartning belgilangan maqsadi keltirilmaydi, balki standartlashtirish obʻekti va (zaruriyat boʻlganda) standartni joriy etish sohasi aniqlashtirilib, standart matnida uni qisqa yozuvi koʻrsatiladi.

«Qoʻllanish doirasi» elementi 1 boʻlinma kabi belgilanadi va standartning birinchi betiga joylashtiriladi.

Meʼyoriy hujjatlarga havolalar.

Agar (milliy darajadagi va tashkilot) standartning matnida, darajasi shunday yoki undan yuqori boʻlgan boshqa standart va texnik-iqtisodiy hamda ijtimoiy maʼlumot

tasniflagichlari (keyinchalik – tasniflagichlar) ga me'yoriy havolalar berilgan bo'lsa, «Me'yoriy hujjatlarga havolalar» («Me'yoriy havolalar») elementi ko'rsatiladi.

Darajasi yuqori yoki shunday bo'lgan boshqa tavsiyanoma, norma va qoidalarga havolalar berilgan bo'lsa, tavsiyanomanomalar, norma va qoidalarda «Me'yoriy hujjatlarga havolalar» elementi ko'rsatiladi.

«Me'yoriy hujjatlarga havolalar» elementi 2 bo'linma ko'rinishida rasmiylashtiriladi. Unda quyidagi ketma-ketlikda bayon qilinadigan havola etiladigan hujjatlarning ro'yxati keltiriladi:

a) O'zbekiston milliy standartlarida:

- O'zbekiston hududida qabul qilingan davlatlararo standartlar:
- O'zbekiston hududida davlatlararo standartlar sifatida amal qiladigan, SEV standartlari:
- O'zbekistonda qabul qilingan davlatlararo tasniflagichlar:
- O'zbekiston milliy standartlari:
- umumdavlat tasniflagichlar:

b) korxonalar standartlarida:

a) ro'yxati bo'yicha me'yoriy hujjatlar;

- korxonalar standartlari.

s) milliy darajadagi tavsiyanomanoma, norma va qoidalarda:

- davlatlararo standartlashtirish bo'yicha O'zbekiston hududida qabul qilingan qoida va tavsiyanomalar;

-milliy darajadagi tavsiyanomalar.

Me'yoriy hujjatlarga havola etilgan ro'yxat, «Ushbu standartda quyidagi standart va tasniflagichlarga havola etilgan» so'zlar bilan boshlanadi. Agar tavsiyanomalarda boshqa tavsiyanomalarga havola qilingan bo'lsa, u holda ko'rsatilgan formulirovkada barcha me'yoriy hujjatlar holatini sanab o'tish o'rniga, «...quyidagi me'yoriy hujjatlarga» deb ko'rsatiladi.

Havola qilingan me'yoriy hujjatlar ro'yxatida, shu hujjatlar 3.9.2.-da ko'rsatilgan ketma-ketlikda har bir darajadagi hujjatlar uchun ro'yxatga olingan

raqamlarining belgilanishlari oshib borish tariqasida joylashtirilib, ular tasdiqlangan (qabul qilingan) yili raqamlari va nomlari bilan shu hujjatning to'liq belgilanishi ko'rsatiladi. Bunda umumtexnikaviy va tashkiliy-metodik standartlar kompleksi (tizimi) ga kiradigan, standartlar nomlarining guruhga oid sarlavhasi uchun abbreviaturalarni ishlatishga yo'l qo'yilmaydi.

Havola qilingan standartning tasdiqlangan (qabul qilingan) yili tegishli ko'rsatkich (katalog) da keltirilgan raqamlarning sonidan foydalanilgan holda ko'rsatiladi.

Havola qilingan me'yoriy hujjatlar ro'yxatidan so'ng, quyidagi ma'lumotlar bilan izoh keltiriladi: «Ushbu standartdan foydalanilganda, joriy yilning 1 yanvar holati bo'yicha tuzilgan, standart (tasniflagich)larning tegishli ko'rsatkichi va joriy yilda nashr etilgan tegishli ma'lumot ko'rsatkichlari bo'yicha O'zbekiston hududida standart (va tasniflagichlar) amal qilishini tekshirish maqsadga muvofiqdir. Agar havola etilgan hujjat almashtirilgan (o'zgartirilgan) bo'lsa, u holda shu standartdan foydalanilganda, almashtirilgan (o'zgartirilgan) standartga amal qilish kerak. Agar havola etilgan hujjat almashtirilmasdan bekor qilingan bo'lsa, u holda unga havola qilingan qoida, shu havolaga daxldor bo'lmagan qismida ishlatiladi».

«Me'yoriy xujjatlarga havolalar» elementga faqat amaldagi me'yoriy hujjatlar to'g'risidagi ma'lumotlar kiradi.

Standart loyihasida ishlab chiqilayotgan standart bilan o'zaro bog'liq bo'lgan standartlarni bir vaqtning o'zida amalda joriy etilishi batamom ta'minlangan taqdirda, ular loyihasini havola etilgan me'yoriy hujjatlar ro'yxatiga kiritishga yo'l qo'yiladi.

Atamalar va ta'riflar

Standartda «Atamalar va ta'riflar» elementi, avval standartlashtirilmagan atamalarni aniqlash yo'li bilan ushbu standartdan foydalanuvchilar o'rtasida atamalar borasida hamfikrlikni ta'minlash zaruriyati bo'lganda ko'rsatiladi.

Izoh – Atamalar va ta’riflar standartida o’rnatilgan atama standartlashtirilgan deb hisoblanadi.

«Atamalar va ta’riflar» elementi bir nomli bo‘lim sifatida rasmiylashtiriladi va quyidagi so‘zlar bilan boshlanadi:

«Ushbu standartda tegishli ta’riflar bilan quyidagi atamalar qo‘llanilgan». Standartda atamalar va ta’riflarni aniqlashda, standart atamalari va ularning ta’riflariga talablari xususdagi [1] qoidalar hisobga olinadi. Ta’rif optimal qisqa bo‘lishi va bitta gapdan iborat bo‘lishi kerak. Bunda qo‘shimcha tushuntirishlar ilovada keltiriladi.

Har bir atamalar moddasiga, «Atamalar va ta’riflar» (3 yoki 2 bo‘lim) bo‘lim raqamidan va undan nuqta bilan ajratilgan shu bo‘limdagi moddaning tartib raqamidan iborat bo‘lgan raqam beriladi.

Atamalar kichik harf bilan*, ta’riflar esa –bosh harf bilan yoziladi.

Atama ta’rifdan ikki nuqta bilan ajratiladi. Abbreviatura bilan ifodalangan, atamaning qisqa shakli, uni nuqta vergul bilan ajratib, atamadan keyin keltiriladi. Boshqa hollarda atamaning qisqa shaklini yozish uchun, atamaning tushirib qoldiriladigan qismi kichik qavs ichiga olinadi.

Zaruriyat bo‘lganda atamalar moddasiga,. belgilanadigan atama va uni ta’rifdan o‘ng tarafda alohida ustunda keltiriladigan ingliz, fransuz va nemis tillardagi (ayrim holatlarda esa ispan va boshqa tillarda) atamalar ekvivalenti kiritilishi mumkin.

Atamaning boshqa tildagi ekvivalentlari tillar kodlari bilan keltiriladi va quyidagi tartibda joylashtiriladi

De -nemis

en -ingliz

es-ispan

ft -franzuz

Izoh - Boshqa tillar nomlarining kodlari – GOST 7.75 bo‘yicha

Atamalar moddasi standart matnida atamalardan foydalanish tartibida yoki alfavit tartibda (standart hajmi 10 betdan oshsa) joylashtiriladi

Agar standartda standartlashtirilgan atamalar ishlatilgan bo'lsa, u holda tegishli standart (standartlar)da atamalar va ta'riflarda me'yoriy hujjatlarga havolalar keltiriladi.

Standartlashtirilgan atama o'rnatilgan standartga havola etilganda, quyidagi formulirovka ishlatiladi:

«Ushbu atamaga ta'rif _____ da o'rnatilgan»
_____ standartning belgilanishi

yoki

«Ushbu standartda _____ bo'yicha atamalar ishlatiladi»
_____ standartning belgilanishi

Standartda «Atamalar va ta'riflar» bo'lim mavjud bo'lganda esa, u

«Ushbu _____ standartda-
_____ bo'yicha atamalar
_____ standartning belgilanishi

shuningdek tegishli ta'riflar bilan quyidagi atamalar qo'llanilgan so'zlar bilan boshlanadi.

Zaruriyat bo'lganda, standartda boshqa standartda o'rnatilgan atama ta'rifini takrorlashga yo'l qo'yiladi.

Belgilash va qisqartmalar

Agar standartda ko'p miqdorda (beshta va undan ko'p) belgilash va /yoki qisqartmalar ishlatilishi kerak bo'lsa, u holda ularni o'rnatish uchun standartning quyidagi maxsus tuzilmaviy elementlaridan biri ishlatiladi, ular ushbu standartning alohida bir nomli bo'linma ko'rinishida ko'rsatiladi: «Belgilash va qisqartirtmalar», «Belgilashalar». Standartning bu bo'limda ushbu standartda qo'llaniladigan belgilash va qisqartirishlar o'rnatiladi, va ularning rasshifrovkasi va/yoki kerakli tushuntirishlar

* Atamani bosh harf bilan yozish zarur bo'lgan holatlardan tashqari, ifodalaydigan tushunchani yozish bilan aniqlanadi.

ko'rsatiladi. Bunda belgilash va qisqartirishlar ro'yxati alifbo tartibida yoki ushbu ro'yxatda belgilash va qisqartirishlarni qidirish qulay bo'lishligi uchun standart matnida birinchi ko'rsatib o'tilishi tartibda tuziladi.

Standartda «Atamalar va ta'riflar» hamda «Belgilash va qisqartmalar» («Belgilash» va «Qisqartmalar») elementlarni bitta «Atamalar, ta'riflar, belgilash va qisqartmalar» («Ta'riflash va belgilashlar atamalari», «Belgilash va qisqartmalar atamalari») bo'limga birlashtirishga yo'l qo'yiladi.

Izoh - Agar ushbu standarta ishlatiladigan barcha belgilash va qisqartmalar unda o'rnatilgan atamalarga mansub bo'lsa, u holda standartning tegishli bo'linmasi «Atamalar va ta'riflar» deb ataladi va 3.10 ga asosan rasmiylashtiriladi.

Asosiy me'yoriy qoidalar

Standartning asosiy me'yoriy qoidalari, O'z DSt 1.0 va O'z DSt 1.15 ga asosan aniqlangan ushbu standartning turi, standartlashtirish ob'ekti va aspektning o'ziga xosligidan kelib chiqib, tarkibi va mazmuni. 6 bo'linma talablari,. xalqaro (mintaqaviy yoki milliy) standart qo'llanilganda esa - O'z DSt ISO/IEC 21 talablari hisobga olinib o'rnatiladigan bo'linma kabi rasmiylashtiriladi.

Standartning asosiy me'yoriy qoidalaridan iborat bo'lgan bo'limlarining bayoni—4 bo'lim talablariga asosan, standarta xalqaro (mintaqaviy yoki milliy) standart qo'llanilganda esa – O'z DSt ISO/IES 21 talablari ham hisobga olingan holda.

Ilovalar

Standartning asosiy qismini to'ldiruvchi material, ilovalar ko'rinishida ko'rsatiladi. Ilovalarda hajmi va/yoki formati kata bo'lgan grafik materialni, katta formatdagi jadvallarni,.hisoblash usullarni, apparatura va asboblarni ta'riflarini, algoritmlar va EXM da yechiladigan masalalar dasturini ko'rsatish maqsadga muvofiq..

Izoh - Standartning asosiy qismi – uni mazmunini tashkil etuvchi qoidalar majmui.

Huquqiy holati bo‘yicha ilovalar majburiy, tavsiyaviy yoki ma’lumotga oid bo‘lishi mumkin.

Standart ilovalari «Ilova» so‘zdan so‘ng A dan boshlab lotin alifboning katta harflari bilan (I va O harflaridan tashqari) belgilanadi.

Lotin alifbo harflari batamom ishlatilib bo‘lingan taqdirda, ilovalar arab raqamlari bilan belgilanadi.

Agar standartda bitta ilova bo‘lsa, u «A» harf bilan belgilanadi.

Har bir ilova yangi betdan boshlanadi. Bunda betning yuqori qismining o‘rtasida bosh harf bilan boshlab kichik harflar bilan yozilgan «Ilova» so‘zi va ilovaning belgilanishi ko‘rsatiladi va yarim qora shrift bilan ajratib qo‘yiladi. Ular tagiga qavs ichida «majburiy», «tavsiyaviy» yoki «ma’lumotga oid» so‘zlar ishlatilib ilovaning huquqiy holati ko‘rsatiladi. Agar bitta betga ikkita (yoki undan ko‘p) ketma-ket joylashtirilgan ilovalarni batamom bayon etish joiz bo‘lsa, u holda ularni shu betga joylashtirishga yo‘l qo‘yiladi.

Ilova mundarijasi matnga nisbatan simmetirik holda joylashgan uning sarlavhasida, alohida satr (yoki satrlar) kabi ko‘rsatiladi, va bosh harf bilan boshlanib, kichik harf bilan yoziladi, standart nashr etilganda esa yarim qora shrift bilan ajratib qo‘yiladi.

Standartdan qulay foydalanish uchun ushbu ilovani qanday tuzilmaviy element to‘ldirayotganligi to‘g‘risidagi ma’lumot ko‘rsatilishi mumkin. Bu ma’lumot ilova sarlavhasi yoki uning snoskasidan keyin qavs ichida ko‘rsatilishi mumkin.

Ilovalar standartning asosiy qismi bilan betlarni umumiy to‘ppa to‘g‘ri nomerlariga ega bo‘lishi kerak.

Standart matnida barcha ilovalarga havolalar berilishi kerak.

Majburiy ilovalarga havola etilganda, quyidagi so‘zlar ishlatiladi: «___ ilovaga asosan», tavsiyaviy va ma’lumotga oid ilovalarga havola etilganda esa –so‘zlar:». «___ ilovada keltirilgan...». Bunda ilovalarning huquqiy holati ko‘rsatilmaydi.

Ilovalar standart matnida ular havola etilgan tartibda joylashtiriladi va 4 bo‘linma talablariga asosan bayon etiladi.

Standartda ilovalar, 3.13 4 asosan ko‘rsatiladigan yozuvlardan tashqari, kichraytirilgan shrift bilan ajratib qo‘yiladi.

Bibliografiya

Agar standartda 4.8.5. asosan havolalar berilgan bo‘lsa, shu standartga barcha ilovalardan keyin bibliografik ma‘lumotlar varag‘i oldidan «Bibliografiya» qo‘shimcha element kiritiladi.

«Bibliografiya» elementiga, kvadrat qavslarda keltirilgan havola etilgan me‘yoriy hujjatlarning tartib nomerlariga asosan, standart va uning ilovalarida ko‘rsatilgan tartibda tuziladigan, 4.8.5 da ko‘rsatilgan havola etilgan me‘yoriy hujjatlarning ro‘yxati kiritiladi.

Misol* -

Bibliografiya

- [1] Qurilish norma va qoidalar
KMK 2.01.-94
- [2] ISO/MEK 2:1996
(ISO/IES Guide 2:1996)

Loyihalash uchun iqlimiy va geologik ma‘lumotlar

Standartlashtirish va faoliyatning bir-biriga yaqin turlari-Umumiy lug‘at
(Standardization and related activities-General vocabulary)

[3] O‘zbekiston Respublika hududiga majburiy sertifikatlashtirish lozim bo‘lgan tovar (mahsulot)ni olib kirish va uni chetga chiqarish tartibi to‘g‘risidagi 06./972-son. 10.12.1999y. O‘zdavstandart, 02/16-09-sonli 21.01.2000y. Davlat bojxona qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan yo‘riqnoma.

Bibliografik ma‘lumotlar

Bibliografik ma‘lumotlar standartning oxiridan oldingi betga yoziladi.

Standartning bibliografik ma‘lumotlari quyidagilardan iborat:

- standartni nashr etishga tayyorlashda «O‘zstandart» agentligi tomonidan o‘rnatilgan tartibda qo‘yiladigan o‘nli universal tasniflash (O‘UT) indeksi;

- O‘z DST bo‘yicha standart mansub bo‘lgan guruh yoki kichik guruh kodlari;

- muhim so‘zlar.

Standartlashtirish ob‘ektiga mansub bo‘lgan muhim so‘zlar, standart sarlavhasida keltirilgan tartibda yoziladi.

Standartning oxirgi beti

Standart loyihasining oxirgi beti D ilovada ko‘rsatilgan qoidalarga asosan rasmiylashtiriladi.

Standart nashr etilganda kelishish varaq va bajaruvchilar imzosi qo‘yilgan varaqni tiraji belgilanmaydi.

Standart bayoniga qo‘yiladigan talablar

Matn bayon etilishiga umumiy talablar

Standart mazmunini o‘ziga xos xususiyatlariga qarab, uning qoidalari matn, jadval, grafik material (rasm, sxema, diagramma) yoki ularning birikmalari ko‘rinishda bayon etiladi.

*Ushbu misolda, standartlarda 4.11.2 asosan misollar ajratib qo‘yiladigan kursiv ishlatilmagan («Bibliografiya» elementni rasmiylashtirish misollarini ko‘rsatish maqsadga muvofiq bo‘lganligi sababli)

Standart matni qisqa (iloji boricha), aniq,, har xil izohlarga yo‘l qo‘ymaydigan, mantiqiy ravishda ketma-ket, zaruriy va standartni qo‘llanish doirasiga asosan undan foydalanish yetarli bo‘lishi kerak

Standartga:

- ob‘ektiv usullar bilan tekshirilishi joiz bo‘lgan talablar;

- ushbu usullarni belgilab beruvchi, yo‘riqnomalar;

- boshqa yo'riqnoma va tavsiyalar;
- standartlashtirish ob'ekti va ular bilan o'zaro bog'liq bo'lgan ob'ektlar (faoliyatning bir-biriga yaqin turlari) to'g'risidagi ma'lumotlar bilan xabarlar, kiritiladi*.

Standartda ta'riflari ushbu standartda ko'rsatilgan atamalar qo'llaniladi (atamalar va ta'riflar standartida o'rnatilgan).

Talablar va yo'riqnomalarni bayon etishda standart matnida quyidagi so'zlar qo'llaniladi: «kerak», «tegishli», «lozim», «zarur», «talab etiladi», «faqat ruxsat etiladi», «yo'l qo'yilmaydi» «taqiqlanadi», «kerak emas», «tegishli emas», «lozim emas», «bo'lishi mumkin ema» va.h.k.

Standartda kattaliklarni eng katta va eng kichik qiymatlariga talablar ko'rsatilib, quyidagi so'z birikmalari ishlatiladi: «ko'p (kam) bo'lmasligi kerak», «oshmasligi kerak».

Misol - Texnik kalsinatsiyalangan sodada, karbonat angidrid natriyning massa ulushi 99,4 % dan kam bo'lmasligi kerak.

Standartda talablar (yo'riqnoma)dan chetga chiqish yo'l qo'yiladigan qoidalar bayon etilganda quyidagi so'zlar qo'llaniladi: «bo'lishi mumkin», «umumiy qoida bo'yicha», «zaruriyat bo'lganda», «yo'l qo'yiladi», «ruxsat etiladi» va h.k.

Standartda tavsiyalar bayon etilganda quyidagi so'zlar qo'llaniladi: «tavsiya etiladi», «tavsiya etilmaydi», «maqsadga muvofiq», «maqsadga muvofiq emas», va h.k.

Tavsiyalarning, tavsiya etadigan xarakteri hujjat,uni nomi yoki bo'linma (kichik bo'linma) sarlavhasi huquqiy holatidan kelib chiqqan taqdirda, ular uchun bayon etishning hikoya usulini ishlatishga yo'l qo'yiladi.

Standartda quyidagilarni ishlatishga yo'l qo'yilmaydi:

- so'zlashuv tilni ishlatilishi, texnitsizm, va professionalizm
- bir xil bitta tushunchalar uchun ma'nosi o'xshash bo'lgan har xil ilmiy-texnikaviy atamalar (sinonimlar), shuningdek o'zbek va rus tillarda ma'nosi bir xil bo'lgan so'zlar va atamalar mavjud bo'lganda, chet el so'zlarni va atamalarini,

- ixtiyoriy soʻz birikmalarini.

Formulalar, jadvallar va rasmlardan tashqari standart matnida quyidagilarni qoʻllashga yoʻl qoʻyilmaydi:

- kattaliklarni salbiy qiymatlari oldidan «-» matematik belgini («minus» soʻzi yozilishi kerak),

- diametrni belgilash uchun «Ø» belgini («diametr» soʻz yozilishi kerak),

- kattaliklarning sonli qiymatlari boʻlmagan matematik belgilarni, masalan, «>» (koʻp), «<» (kam) «=» (teng), «≥» (koʻp yoki teng), «≤» (kam yoki teng), «≠» (teng emas), shuningdek «№» (raqam), va «%» (protsent)

Berilgan aniqlik bilan mahsulotni tayyorlash (ishlarni bajarish uchun) uchun standartda oʻrnatiladigan koʻrsatkichlarning sonli qiymatlari, odatda Oʻz DSt talablariga amal qilgan holda chegaraviy ogʻishlar bilan keltiriladi yoki eng koʻp va (yoki) eng kam qiymatlar kabi koʻrsatiladi.

Koʻrsatkichlaning chegaraviy (yoʻl qoʻyilgan) qiymatlari quyidagicha koʻrsatilishi mumkin:

Standartda fizikaviy konstanta va modda hamda materiallarning xususiyatlari toʻgʻrisidagi maʼlumotlar keltirilganda, GOST 8.310 boʻyicha ushbu maʼlumotlarning toifasi koʻrsatiladi.

Standart matning boʻlinishi

Standart asosiy qismining matni tuzilmaviy elementlarga boʻlinadi: boʻlimlar, kichik boʻlimlar, bandlar, kichik bandlar. Boʻlimlar tegishli bandlar bilan bandlar yoki boʻlimlarga boʻlinishi mumkin. Bandlar zaruriyat boʻlganda kichik bandlarga boʻlinishi mumkin.

Izoh - Standartning asosiy qismiga muqova, titul varaq. soʻz boshi, mazmuni, kirish., ilovalar, bibliografiya, bibliografik maʼlumotlardan tashqari uning barcha elementlari kiradi.

Standart matni band va kichik bandlarga boʻlinganda, har bir band, kichik band, alohida qoidani tashkil etishi, yaʼni mantiqan tugallangan qismga ega boʻlishi kerak.

Bo‘lim, kichik bo‘lim, band, kichik band arab raqamlar bilan nomerlanadi

Bo‘limlar, standartning asosiy qismini barcha matni mobaynida tartib raqamga ega bo‘lishi kerak.

Misol - 1.2,3, va h.k.

Kichik bo‘lim raqami, nuqtalar (nuqta) bilan ayirilgan bo‘lim va kichik bo‘lim raqamidan, bandlar raqami esa – bo‘lim, kichik bo‘lim, va band (yoki bo‘lim va band) raqamidan iborat bo‘lishi kerak.

Misollar:

1 1.1.1; 1.1.2.; 1.2.1.; 1.2.2. v .h.k.

2 1.1; 1.2; 1.3; va h.k..

Kichik band raqamlari, nuqtalar bilar ayirilgan bo‘linma., kichik bo‘linma.(u mavjud bo‘lsa) band va kichik band raqamidan iborat.

Misol - 1.1.1.1.; 1.1.1.2; 1.1.1.3;

Standartning tuzilmaviy elementlarini nomerlashda raqamlar soni to‘rttadan oshmasligi kerak.

Bo‘lim, kichik bo‘linma, band va kichik band raqamidan so‘ng nuqta ko‘yilmaydi, lekin standart matnidani ochiq joy bilan ajratiladi.

Agar standart asosiy qismining matni kichik bandlarga bo‘lingan bo‘lsa, matnni keyingi bo‘linishlari uchun raqam qo‘yilmaydigan satr boshi ishlatilib, matn ajratiladi.

Ilova matni uning raqamlari oldiga ushbu ilovaning belgilanishi qo‘yilib, va nuqta bilan uni raqamdan ajratib, har bir ilova doirasida nomerlanadigan bo‘linma, kichik bo‘linma, band, kichik bandlarga bo‘linishi mumkin

Misollar

1 A.1; A.2; A.3; va h.k.

2 V1.1; V.1.2; V.2.1; va h.k.

Agar standartning bo‘lim yoki kichik bo‘lim yoki uning ilovasida faqat bitta band bo‘lsa, u holda unga raqam qo‘yilmaydi.

Standartning bo‘lim yoki bo‘lim bandlarga bo‘lingan bo‘lsa, shu bo‘limga (kichik bo‘limga) birinchi banddan oldingi matnni qo‘shishga, o‘xshash matnni

qo‘shish xalqaro (mintaqaviy) standartni qo‘llash bilan asoslangan hollaridan tashqari yo‘l qo‘yilmaydi.

Me‘yoriy hujjatning titul varag‘ini rasmiylashtirish qoidalari

- ① me‘yoriy hujjatni belgilaniши
- ② me‘yoriy hujjatni toifasi
- ③ me‘yoriy hujjatni nomi
- ④ «Расмий нашр» сўзи. Me‘yoriy hujjatning loyihasida ushbu сўзлар ўрнига 5.2.3 га асосан лойиха тўғрисида ахборот келтирилади
- ⑤ me‘yoriy hujjatni тасдиқлаган идорани номи
- ⑥ me‘yoriy hujjatni тасдиқлаган идорани жойлашган жойи

С Илова

(маълумот учун)

**Me‘yoriy hujjat tўplamining titul varag‘ini
rasmiylashtirish misoli**

ЎЗБЕКИСТОН СТАНДАРТЛАШТИРИШ ДАВЛАТ ТИЗИМИ

O'z MSt 1.0:2008, O'z MSt 1.1: 2008, O'z MSt 1.3:2008,
O'z MSt 1.6:2008, O'z MSt 1.8:2008

Расмий нашр

Ўзбекистон стандартлаштириш, метрология ва
сертификатлаштириш агентлиги

Тошкент

**Д Илова
(мажбурий)**

Стандартнинг охириги бетини расмийлаштириш қоидалари

Ј.1 Стандарт лойиҳасини тайёрлашда унинг охириги бети Ј.1 расмга асосан расмийлаштирилади

		_____	стандартнинг белгиланиши
ТК (ҚК) раиси	_____	_____	
	шахсий имзо	Ф.И.О.И	
ТҚ-нинг масъул котиби (ҚК-нинг котиби)	_____	_____	
	шахсий имзо	Ф.И.О.И.	
Ишланма раҳбари			
Стандртни ишлаб чикувчи - корхона номи, лавозими	_____	_____	_____
	шахсий имзо	Ф.И.О.И.	
Бажарувчи,	_____	_____	_____
	лавозими	шахсий имзо	Ф.И.О.И.
БИРГАЛИКДА БАЖАРУВЧИЛАР			
Биргаликда бажарувчи корхонанинг раҳбарини лавозими	_____	_____	_____
	шахсий имзо	Ф.И.О.И.	
Раҳбари,	_____	_____	_____
	лавозими	шахсий имзо	Ф.И.О.И.
Бажарувчи,	_____	_____	_____
	лавозими	шахсий имзо	Ф.И.О.И.

Ј.1 –расм. Стандартни охириги бетининг шакли

Е Илова
(мажбурий)
Ўзбекистон миллий стандартининг биринчи бетини шакли

_____ стандартнинг белгиланиши

ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ СТАНДАРТИ

_____ стандартнинг давлат тилидаги номи

_____ стандартнинг рус тилидаги номи

_____ стандартнинг инглиз тилидаги номи

Жорий этиш санаси _____
йил, ой, кун

Стандарт матни

_____ Расмий нашр

Ғ Илова
(мажбурий)

Миллий даражадаги тавсияномаларнинг биринчи бетини шакли

1

2

3

4

5

6

7

Миллий даражадаги тавсияномаларнинг биринчи бетини расмийлаштириш қоидалари

- 1 меъёрий ҳужжатни белгиланиши
- 2 меъёрий ҳужжатни тоифаси
- 3 меъёрий ҳужжатни давлат тилидаги номи
- 4 меъёрий ҳужжатни рус тилидаги номи
- 5 меъёрий ҳужжатни жорий этиш санаси ёки амал қилиш муддати
- 6 меъёрий ҳужжатни матни
- 7 «Расмий нашр» сўзи

G Илова
(тавсия этиладиган)
Корхона стандарти меъёрий хужжатларининг биринчи бетини шакли

①

②

③

④

⑤

⑥

Корхона стандартининг биринчи бетини расмийлаштириш қоидалари

- 1 стандартни белгиланиши
- 2 меъёрий ҳужжатни тоифаси
- 3 меъёрий ҳужжатни давлат тилидаги номи
- 4 меъёрий ҳужжатни рус тилидаги номи
- 5 меъёрий ҳужжатни жорий этиш санаси ёки амал қилиш муддати
- 6 меъёрий ҳужжатнинг матни

**Н Илова
(мажбурий)**

Стандарт бетларининг шакли (биринчи бетдан ташқари)

а) жуфт

стандартни белгиланиши
матн
бетнинг номери

б) тоқ

стандартни белгиланиши
матн

Ж Илова
(тавсия этиладиган)

Стандартлар бетларининг шакли (биринчи ва охириги бетидан ташқари)

а) жуфт

стандартни белгиланиши	
СТАНДАРТ НИНГ ДАВЛАТ ТИЛИДАГИ МАТНИ	СТАНДАРТН ИНГ РУС ТИЛИДАГИ МАТНИ
ГРАФИК МАТЕРИАЛ*	
СТАНДАРТ НИНГ ДАВЛАТ ТИЛИДАГИ МАТНИ	СТАНДАРТН ИНГ РУС ТИЛИДАГИ МАТНИ

б) тоқ

стандартни белгиланиши	
СТАНДАРТ НИНГДАВЛ АТ ТИЛИДАГИ МАТНИ	СТАНДАРТ НИНГ РУС ТИЛИДАГИ МАТНИ
ГРАФИК МАТЕРИАЛ*	
СТАНДАРТ НИНГ ДАВЛАТ ТИЛИДАГИ МАТНИ	СТАНДАРТ НИНГ РУС ТИЛИДАГИ МАТНИ

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston Respublikasida metrologiya xizmatlari ko‘rsatish tartibini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Vazirlar Mahkamasining 29.08.2020 dagi 528-sonli qarori
2. Ю.А.Орлов, Д.Ю.Орлов, Е.В.Арефьев и др. «Метрологическая экспертиза и нормоконтроль технической документации» ВлГУ-2019. 79 с.
3. O‘zDSt 1.6:200_
4. O‘zDSt 1.21:2015 Hujjatlarning ekspertizasi.